



BANK TIZIMI MODERNIZATSIYASI: ISLOHOTLARNING O'ZIGA XOSLIGI, MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

Vafojev Boburjon Rasulovich

TDIU, Raqamli iqtisodiyot kafedrasi professori v.b., i.f.n.

boburvafo@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur ishda korxonalarda keng qo'llanilayotgan ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarining bulutli texnologiyalar, onlayn xizmatlar va zamonaviy raqamli yechimlarga integratsiyalashuvi jarayonlari tahlil qilinadi. Zamonaviy biznes jarayonlarida tezkorlik, samaradorlik va moslashuvchanlikni ta'minlashda ERP tizimlarining bulutli platformalar hamda onlayn xizmatlar bilan uyg'un ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu ishda integratsiya jarayonining nazariy asoslari, texnologik imkoniyatlari hamda amaliy afzalliklari o'rganiladi. Shuningdek, ERP tizimlari uchun bulutli yechimlarning xavfsizlik, xarajatlarni optimallashtirish, xizmatlar doirasini kengaytirish va real vaqt rejimida boshqaruvni ta'minlash kabi ustunliklari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari asosida ERP tizimlarini bulutli texnologiyalar va onlayn xizmatlar bilan integratsiya qilishning samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va mexanizmlar ishlab chiqiladi.

Annotation

This work analyzes the processes of integration of ERP (Enterprise Resource Planning) systems, widely used in enterprises, with cloud technologies, online services and modern digital solutions. In order to ensure speed, efficiency and flexibility in modern business processes, the harmonious operation of ERP systems with cloud platforms and online services is of great importance. Therefore, this work studies the theoretical foundations, technological capabilities and practical advantages of the integration process. Also, the advantages of cloud solutions for ERP systems, such as security, cost optimization, expansion of the range of services and provision of real-time management, are shown. Based on the results of the research, proposals and mechanisms are developed to increase the efficiency of integrating ERP systems with cloud technologies and online services.

Kalit so'zlar

ERP tizimlari, bulutli texnologiyalar, onlayn xizmatlar, raqamli yechimlar, integratsiya, biznes jarayonlari, samaradorlik, IT-infratuzilma, real vaqt boshqaruvi, xarajatlarni optimallashtirish.

Keywords

ERP systems, cloud technologies, online services, digital solutions, integration, business processes, efficiency, IT infrastructure, real-time management, cost optimization.

Kirish

So'nggi yillarda biznes jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish korxonalar, ayniqsa, moliyaviy muassasalar uchun strategik vazifaga aylandi. Sug'urta kompaniyalari ushbu jarayonlarda yetakchi o'rin egallamoqda, chunki ularning asosiy faoliyati yuqori darajada aniqlik, shaffoflik va tezkor ma'lumot almashinuvini talab qiladi. Shu boisdan, zamonaviy ERP tizimlarining joriy etilishi nafaqat funksional, balki texnologik jihatdan ham yangi bosqichga ko'tarildi. Bugungi kunda raqamli transformatsiya sug'urta kompaniyalari uchun raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimlaridan foydalanish orqali kompaniyalar xarajatlarni qisqartirish, to'liq shaffoflikka erishish va strategik qarorlarni tezkor qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shunday tizimlardan biri Microsoft Dynamics 365 bo'lib, u modullarga asoslangan gibrid ERP va CRM platformasidir. ERP qismini Moliya (Finance), Tijorat (Commerce), Ta'minot zanjiri (Supply Chain), Inson resurslari (Human Resources), Ishlab chiqarish (Manufacturing) kabi modullar tashkil qiladi. CRM qismini esa Sotuv (Sales), Loyiha boshqaruvi (Project Management), Mijozlarga xizmat ko'rsatish (Customer Service), Manzilli xizmat ko'rsatish (Field Service) va Marketing (Marketing) kabi modullar qamrab oladi. Tizim barcha biznes jarayonlarni yagona ekotizimda birlashtiradi va Microsoft Power Platform bilan chuqur integratsiyalangan.

So'nggi yillarda biznes jarayonlarining raqamlashtirilishi va globallasuvi sharoitida korxonalar uchun tezkor qaror qabul qilish, resurslarni samarali boshqarish va xarajatlarni optimallashtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda ERP tizimlari korxona faoliyatini yagona platforma asosida boshqarish imkonini beruvchi asosiy axborot tizimiga aylangan. Shu bilan birga, zamonaviy bulutli texnologiyalar va onlayn xizmatlarning jadal rivojlanishi ERP tizimlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirib, ulardan foydalanish samaradorligini oshirmoqda. Xususan, bulutli yechimlar dasturiy ta'minot va infratuzilmaga katta sarmoya talab etmasdan, moslashuvchanlik va real vaqt rejimida boshqaruvni ta'minlashi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham korxonalar raqamli transformatsiya jarayonlarini keng joriy etmoqda va bu jarayonda ERP tizimlarining bulutli texnologiyalar hamda onlayn xizmatlar bilan integratsiyasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki bu yondashuv nafaqat ichki boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki xalqaro bozorga chiqish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu sababli, ERP tizimlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish masalasi O'zbekiston sharoitida iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmogda va uning ilmiy asoslarini ishlab chiqish amaliy ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Jo'rayev A. o'zining "Korxonalarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi" nomli tadqiqotida raqamli texnologiyalarni, xususan, ERP tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarida xarajatlarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Muallif fikricha, ERP tizimlari korxonalarining barcha bo'limlarini yagona platformaga birlashtirib, real vaqt rejimida boshqaruvni ta'minlaydi, bu esa tezkor qaror qabul qilishni yengillashtiradi. Biroq, Jo'rayev tizimlarni joriy etishda mahalliy infratuzilma va kadrlar tayyorgarligi bilan bog'liq muammolarni ham alohida ta'kidlaydi [3].

Ivanova T.V. "Интеграция ERP-систем и облачных технологий в управлении предприятием" nomli maqolasida bulutli ERP yechimlarining texnik arxitekturasini va ularning foydalanuvchilar uchun qulayligi haqida so'z yuritgan. Muallifning fikricha, korxonalar uchun eng muhim ustunliklardan biri – bu ma'lumotlar markazlashuvi va real vaqtli tahlil imkoniyatidir. Shuningdek, u bulutli ERP tizimlarining moslashuvchanligi, yangilanish tezligi va xavfsizlikni ta'minlashdagi ustun jihatlarini amaliy misollar orqali ko'rsatib bergan [4].

Tahlil qilingan manbalar shuni ko'rsatadiki, ERP tizimlarini bulutli texnologiyalar bilan integratsiyalash korxonalarga quyidagi ustunliklarni beradi:

- IT-infratuzilma xarajatlarini kamaytirish;

- real vaqt rejimida tahlil va boshqaruvni ta'minlash;

- xavfsizlik va ma'lumotlar markazlashuvini kuchaytirish;

- tezkor qaror qabul qilish va mijozlarga xizmat sifatini yaxshilash.

Bu esa O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish va sug'urta sohasida innovatsion boshqaruvni yo'lga qo'yish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalaniladi. Avvalo, ERP tizimlarining bulutli texnologiyalar va onlayn xizmatlar bilan integratsiyasi bo'yicha xorijiy hamda mahalliy ilmiy manbalarni o'rganish orqali nazariy-uslubiy tahlil amalga oshiriladi. Keyinchalik, xalqaro tajriba asosida turli ERP tizimlari (SAP, Oracle, Microsoft Dynamics va boshqalar) imkoniyatlari qiyosiy tahlil yordamida solishtiriladi. O'zbekiston sharoitida amaliyotda mavjud muammo va imkoniyatlarni aniqlash maqsadida korxona va tashkilotlarda empirik tadqiqotlar – so'rovnoma va intervyular o'tkaziladi. Shu bilan birga, ERP tizimlarini bulutli texnologiyalar bilan integratsiya qilishning samaradorlik darajasini o'lchashda statistik va iqtisodiy-matematik usullar qo'llanib, xarajatlarni qisqartirish, vaqtni tejash va mahsuldorlik kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar asosida ERP tizimlari uchun samarador integratsiya jarayonini ta'minlovchi konseptual model va mexanizmlar ishlab chiqiladi hamda ularning samaradorligi ekspert baholash usuli orqali sinovdan o'tkaziladi.

Tahlil va natijalar

Microsoft Dynamics 365 Finance – bu moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish, hisobotlarni shakllantirish va byudjetlash tizimini samarali boshqarish uchun mo'ljallangan zamonaviy ERP platformasidir. Ushbu tizimning funksional imkoniyatlari sug'urta kompaniyalari ehtiyojlariga mos keladi. Jumladan, u qator afzalliklarga ega bo'lib, real vaqt rejimida moliyaviy tahlillar olib borish, to'lovlar va

kompensatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish, ichki nazoratni kuchaytirish kabi vazifalarni bajaradi (1-jadval).

1-jadval

Microsoft Dynamics 365 Financening sug'urta kompaniyasi uchun asosiy afzalliklari¹

Funksiya	Tavsifi	Sohada qo'llanilishi
General ledger	Har qanday moliyaviy operatsiyalarni kiritish, boshqarish va nazorat	Polislar va da'volar bilan bog'liq har qanday to'lovlar/tushumlarni qayd etish
Accounts Payable/ Receivable	Kontragentlar bilan hisob-kitoblar (olish/berish)	Agentlar, brokerlar va qayta sug'urta kompaniyalari bilan hisob-kitob
Cash & Bank Management	Hisob raqamlar va naqd pul harakati nazorati	Turli valyutadagi to'lovlar, foiz va investitsiya kirimlari
Budgeting & Forecasting	Byudjet tayyorlash, tahlil qilish va kelishtirish	Mehnat xarajatlari, marketing, zararlar uchun rezervlarni rejalashtirish
Fixed Assets	Asosiy vositalar hisobini yuritish	Bino, serverlar, texnika va boshqa aktivlarning amortizatsiyasi
Financial Reporting	IFRS, GAAP va boshqa standartlarda hisobotlar	Ichki audit, tashqi regulyatorlar uchun hisobot berish
Compliance & Audit	Soliq, audit va korporativ qonunchilik bilan muvofiqlik	Sug'urta sohasidagi regulyatsiyalarga rioya etish

Tizim Microsoftning boshqa xizmatlari – Power BI, Azure, Office 365 bilan to'liq integratsiyalashgani sababli, foydalanuvchi uchun yagona raqamli ekotizimni ta'minlaydi. Bu esa ma'lumotlar bilan ishlashda samaradorlikni oshiradi va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydi.

Dynamics 365 Finance joriy etilishi orqali sug'urta kompaniyasi o'zining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, ichki va tashqi audit talablariga muvofiq ish yuritish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, uzoq muddatli strategik rejalashtirishda muhim rol oynaydi. Avvalo, bu tizim moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida kuzatish va avtomatlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Sug'urta mukofotlari va to'lovlarini boshqarish jarayonlari yagona platforma orqali yuritilib, inson omiliga bog'liq xatoliklar kamayadi. Shuningdek, tizimda mavjud analitik va hisobot vositalari orqali xatarlarni aniqlash, baholash va nazorat qilish osonlashadi. CRM moduli esa mijozlar bilan uzluksiz aloqani ta'minlab, xizmat sifatini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda ERP tizimlarining zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi sug'urta kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Microsoft Dynamics 365 Finance bulutli platformada ishlashi tufayli ma'lumotlarga har qanday joydan, har qanday qurilma orqali kirish imkonini beradi. Bu esa xodimlar va rahbariyat uchun ish jarayonlarini masofaviy shaklda tashkil etishni yengillashtiradi.

Tizim Power BI orqali vizual tahlillar va interaktiv hisobotlar tayyorlashni qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalari orqali moliyaviy xatarlarni baholash, avtomatik tavsiyalar berish va prognozlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.


esa sugʻurta faoliyatidagi noaniqliklarni minimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dynamics 365 Finance API va integratsiya modullari orqali boshqa sugʻurta platformalari, CRM tizimlari, onlayn toʻlov shlyuzlari va hatto mobil ilovalar bilan oson moslashadi. Bu integratsiya jarayonlarni uzluksiz qilib, mijozlarga tezkor va qulay xizmat koʻrsatish imkoniyatini yaratadi.

Kompaniyalarda Dynamics 365 Customer Service xizmatidan foydalanishi mumkin boʻlgan turli xil ssenariylar mavjud (Rasm).

Aloqa markazi: Aloqa markazi xodimlari Dynamics 365 Customer Service xizmatidan foydalanishi mumkin. Mijozlar kompaniya bilan turli kanallar boylab aloqada boʻlganda, maʼlumotlar agent tajribasiga asoslangani uchun eng yaxshi agentga yoʻnaltiriladi.

Xizmat koʻrsatish markazi: Avtomobillarni taʼmirlash ustaxonasi kabi xizmat koʻrsatish markazlarida mijozlarga taqdim etiladigan xizmatlarni rejalashtirish uchun Dynamics 365 Customer Service xizmatidan foydalanishi mumkin.



1-rasm. Dynamics 365 Customer Service xizmatidan foydalanish jarayoni²

Bilimlar ombori: Mijozlarni qoʻllab-quvvatlash markazi Dynamics 365 Customer Service bilimlarni boshqarish imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin. Mijozlarga xizmat koʻrsatish mijozlar bilan bogʻliq muammolarni hal qilishda agentlar uchun ochiq boʻlgan bilimlar omborini yaratishga yordam beradi.

Ushbu rasmdan koʻrinib turibdiki, sugʻurta kompaniyasi bilan oldindan belgilangan davrda 15 ta keysni ochish huquqini beradigan qoʻllab-quvvatlash shartnomasiga ega boʻlgan oltin mijoz bor. Mijozning qoʻllab-quvvatlash shartnomasi ularning yangi ishlarni qanday ochishini belgilaydi. Ular buni telefon, mobil qurilma, ijtimoiy media yoki elektron pochta kabi bir nechta kanallar orqali amalga oshirishi mumkin. Keysni yaratish qoidalari qabul qilingan elektron pochtani kimdan kelganlarni aniqlash uchun

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tekshiradi. Ilovada mijoz uchun keys yozuvini yaratish uchun elektron pochtaning tarkibi ham tekshiriladi.

Marshrutlash qoidalari keys yozuvi yaratilgandan so'ng avtomatik ravishda eng mos navbatga yo'naltirish uchun keys boyicha mezonlarni tekshiradi. Oltin navbatga kirish huquqiga ega bo'lgan qo'llab-quvvatlash agenti keysni ishlash uchun navbatdan oladi va endi uni hal qilish uchun javobgardir. Keysni hal qilish biznes-jarayonlari oqimi agentga keysni hal qilish orqali ishlayotganda ko'rsatma beradi.

Agent tashkilotning bilimlar bazasidan foydalangan holda keysning potentsial yechimini o'z ichiga olgan manbani topadi. Keys yozuvlari ichidan ular manbani to'g'ridan-to'g'ri mijozga elektron pochta orqali yuborishlari va muammoni hal qilishlari mumkin. Qo'llab-quvvatlash shartnomasi tafsilotlarini saqlaydigan mijozning huquq yozuvi ularning huquqlarida 14 ta holat qolganligini aks ettirish uchun yangilanadi.

Bunday samarali axborot oqimi va muvofiqlashtirilgan xizmat ko'rsatish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy bulut va gibrid infratuzilma yordamida ma'lumotlarni xavfsiz saqlash hamda korporativ standartlarga muvofiq boshqarish ta'minlanadi. Shu tariqa, Microsoft Dynamics 365 Finance nafaqat moliyaviy hisob-kitob, balki butun sug'urta ekotizimi uchun markaziy raqamli platforma vazifasini bajara oladi.

Microsoft Dynamics 365 Financening arxitekturasi Service-Oriented Architecture (SOA) tamoyillariga asoslangan bo'lib, u mikroservislar asosida modullarning mustaqil ishlashini ta'minlaydi (3.7-rasm). Bu esa sug'urta kompaniyalaridagi biznes jarayonlarini moslashuvchan va masshtablanuvchi shaklda avtomatlashtirishga imkon beradi.

Tizim bulutli (cloud-based) texnologiyalarda jumladan, Microsoft Azure infratuzilmasi bazasida faoliyat yuritadi. Azure Active Directory va Role-Based Access Control (RBAC) orqali ma'lumotlarning xavfsizligi va foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish samarali yo'lga qoyiladi. Bu GDPR, ISO/IEC 27001 kabi xalqaro standartlarga mos ravishda ma'lumotlarni muhofaza qilishga kafolat beradi.

Mashina o'rganish (machine learning) algoritmlari yordamida to'lov qobiliyatini baholash, da'volarni (claims) tahlil qilish, ehtimoliy suiste'mol holatlarini oldindan aniqlash imkoniyatlari yaratiladi. Bu ko'rsatkichlar KPI (Key Performance Indicator) va SLA (Service Level Agreement) asosida avtomatik ravishda baholanadi.

Dynamics 365 Financening RESTful API lari orqali uni boshqa ixtisoslashgan tizimlar, jumladan, CRM, kafolat platformalari, aktuar modellashtirish dasturlari bilan integratsiya qilish mumkin. Bu turli ma'lumot manbalari o'rtasida ETL (Extract, Transform, Load) jarayonlarini avtomatlashtirishni ta'minlaydi.

Microsoft Dynamics 365 Finance bulutli asosda ishlovchi moliyaviy boshqaruv ERP tizimi bo'lib, u biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, tahlil qilish va optimallashtirishda keng imkoniyatlarga ega. Uning asosiy afzalligi bulutli texnologiyalar, onlayn xizmatlar va sun'iy intellekt, IoT kabi zamonaviy texnologik yechimlar bilan to'liq integratsiyalashganidir. Shuningdek, IoT (Internet of Things) texnologiyalari bilan integratsiya holatida transport va mulk sug'urtasi obektlaridan real vaqtli ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish mumkin. Bu kafolat jarayonida ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni kuchaytiradi.

Qisqacha aytganda, Microsoft Dynamics 365 Finance bu nafaqat moliyaviy hisobot berish vositasi, balki sun'iy intellekt, IoT va bulutli infratuzilma bilan chuqur integratsiyalashgan, kelajakka yo'naltirilgan intellektual platformadir. Sug'urta kompaniyalari uchun esa bu raqamli transformatsiya jarayonida strategik afzalliklarni ta'minlovchi mustahkam asosdir.

Microsoft Dynamics 365 Finance Microsoft korporatsiyasining global miqyosda tatbiq etiladigan biznes platformasi hisoblanib, uning eng asosiy vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Moliyaviy hisobotlar va tahlillarni avtomatlashtirish;

Xarajatlar va byudjetlashni samarali boshqarish;

Ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;

Davlat va xalqaro moliyaviy standartlarga muvofiq hisobot berish.

Tizim modulli strukturaga ega bo'lib, unda har bir funksional yo'nalish alohida mikroservis sifatida ishlaydi. Bu uning masshtablanuvchanligini, modullar o'rtasidagi bog'liqlikni va joriy etishdagi moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Finance odamlarga tezkor, ongli qarorlar qabul qilish imkoniyatini berish uchun yagona global moliyaviy va operatsion xususiyatlarni taqdim etish orqali korxonalarning o'zgaruvchan bozor talablariga tezda moslashishiga va biznesning tez o'sishiga yordam beradi.

O'rnatilgan boshqaruv vositalaridan foydalangan holda, moliyaviy rahbarlar o'zlarining moliyaviy ma'lumotlarini tushunishlari, bo'limlar va xarajatlar markazlari kabi barcha operatsion birliklarda 360 daraja ko'rinishga ega bo'lishlari va bugungi tez va doimiy o'zgaruvchan global bozorda raqobatbardosh qolish uchun oqilona qarorlar qabul qilishlari mumkin.

Tizim kompaniyalarga daromadlilikni oshirishga yordam berish uchun real vaqt rejimida mustahkam moliyaviy razvedka va o'rnatilgan tahlillarni taqdim etuvchi markazlashtirilgan, global moliyaviy boshqaruv yechimi yordamida marja daromadlarini oshirishga yordam beradi.

Dynamics 365 Finance Microsoft texnologiyasini qo'llab-quvvatlaydigan har qanday qurilma va platformada ishlash uchun etarlicha moslashuvchan zamonaviy, foydalanuvchilarga qulay interfeys dizaynidan foydalanadi. Platforma xodimlarga aqlli avtomatlashtirish, vazifalarni ustuvorlashtirish va biznesning ijobiy natijalari uchun samaradorlikni oshirish uchun Microsoft 365 ilovalari bilan integratsiyani ta'minlovchi rolga asoslangan ish joylari bilan ta'minlaydi. Bizga ma'lumki, Microsoft Excel moliya foydalanuvchilari orasida eng mashhur vositadir. Xodimlar Excelda Financening istalgan sahifasidan ma'lumotlarni ochishi, ma'lumotlarni o'zgartirishi va ma'lumotlarni yana Financega nashr etishi mumkin.

Har qanday kompaniyada moliyaviy boshqaruv tizimining ikkita maqsadi mavjud:

Maksimal foyda – kompaniya uchun qisqa va uzoq muddatda maksimal foyda olishga harakat qilish. Finance barcha moliyaviy operatsiyalarni buxgalteriya daftarida saqlaydi, shuningdek, moliyaviy rahbarlar to'g'ri qaror qabul qilishlari uchun xarajatlar va rejalashtirilgan daromadlar haqida tushuncha berish uchun vositalar va xususiyatlarni taklif qiladi.

Boylikni maksimal darajada oshirish – aksiyalarning bozor qiymatini oshirish orqali kompaniya aktsiyadorlari uchun maksimal boylik olish, bu kompaniya faoliyati bilan

bevosita bog'liq. Xom ashyo sotib olish, ish haqi, ijara haqi, elektr energiyasi va boshqalar kabi kundalik xarajatlarni to'lash uchun kompaniya yaxshi pul oqimiga ega bo'lishi kerak. Agar kompaniya yaxshi pul oqimiga ega bo'lsa, u xaridlarda naqd chegirmalarini olish, katta hajmdagi xaridlarni amalga oshirish, mijozlarga kredit berish va boshqalar kabi ko'plab imkoniyatlardan foydalanishi mumkin. Pul oqimi kompaniyaning omon qolish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Xulosa va takliflar

Microsoft Dynamics 365 Finance – bu sug'urta kompaniyasida raqamli moliyaviy boshqaruvni joriy etish orqali yuqori samaradorlik va shaffoflikka erishishning ishonchli yechimi hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatida ERP tizimlarini bulutli texnologiyalar va onlayn xizmatlar bilan integratsiyalash samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Chunki sug'urta xizmatlari ko'p hollarda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash, mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish va risklarni aniq baholashni talab qiladi. Bulutli ERP tizimlari esa bu jarayonlarni markazlashtirilgan holda yuritish, real vaqt rejimida ma'lumotlarga kirish va onlayn xizmatlar orqali mijozlar bilan bevosita muloqotni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Natijada sug'urta tashkilotlarining ichki boshqaruvi soddalasadi, operatsion xarajatlari kamayadi va xizmatlar sifati oshadi.

O'zbekiston sug'urta bozorida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal kechayotgan bir davrda ERP tizimlarining zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, onlayn sug'urta polislarini rasmiylashtirish, elektron arizalarni ko'rib chiqish va mijozlar bilan mobil ilovalar orqali aloqada bo'lish imkoniyatlari tashkilotlar raqobatbardoshligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, ERP tizimlari va bulutli yechimlarning uyg'un qo'llanilishi sug'urta tashkilotlarida xizmat ko'rsatish tezligini oshiribgina qolmay, balki mijozlarning ishonchini mustahkamlash va ularning ehtiyojlariga mos innovatsion xizmatlarni joriy etishga zamin yaratadi.

Sug'urta tashkilotlarida ERP tizimlarini bulutli texnologiyalar va onlayn xizmatlar bilan integratsiya qilish samaradorligini oshirish uchun birinchi navbatda raqamli infratuzilmani mustahkamlash va ma'lumotlarni himoya qilish tizimini takomillashtirish lozim. Bulutli ERP yechimlarini joriy etishda kiberxavfsizlik standartlarini joriy qilish, mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini ishonchli himoya qilish va uzluksiz ishlash kafolatini beruvchi xizmat ko'rsatish mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sug'urta tashkilotlariga moslashtirilgan ERP modullarini ishlab chiqish, ya'ni risklarni boshqarish, to'lovlarni avtomatlashtirish, onlayn polislar va elektron arizalarni qayta ishlash kabi maxsus funksiyalarni joriy etish tavsiya etiladi. Bu esa nafaqat ichki boshqaruvni soddalashtiradi, balki mijozlarga ko'rsatiladigan xizmat sifatini oshiradi va raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, xalqaro sug'urta kompaniyalari tajribasidan foydalanib, O'zbekiston sharoitiga mos innovatsion mexanizmlarni yaratish ham dolzarb takliflardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 martdagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-108-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-50-sonli Farmoni.
3. Jo‘rayev A. Korxonalarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022. – 184 b.
4. Иванова Т.В. Интеграция ERP-систем и облачных технологий в управлении предприятием. // Журнал «Информационные технологии и экономика». – №3. – Москва, 2021. – С. 45–52.
5. Harrison R., Taylor J. Digital Transformation in Insurance: A Global Perspective / R. Harrison, J. Taylor. – Text: direct // Journal of Digital Insurance. 2019. Vol. 6. P. 120-125. <https://digitalinsurancejournal.com/articles/2019/06>.
6. Müller S., Schulz H. The impact of digitalization on the insurance sector: challenges and solutions / S. Müller, H. Schulz // International Journal of Insurance and Risk Management. 2020. – Vol. 8. – P. 45-51. URL: <https://www.ijirm.org/>.
7. Завьялкин Д.В. 1С: Академия ERP. Управленческий учет / Д.В. Завьялкин, Е.В. Гаврилов, И.Б. Пальчиков. – Изд. 2-е. – М.: ООО «1СPublishing», 2019. – 257 с.
8. Медяник С.И. Поведенческие стратегии потребителей страховых услуг в условиях цифровизации / С.И. Медяник, О.В. Медяник // Роль управления рисками и страхования в обеспечении устойчивости общества и экономики : сб. тр. XXIV междунар. науч.-практ. конф. / отв. ред. Е.В. Злобин, И.Б. Котлобовский. – Москва, 2023. – С. 211-219. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?edn=ezpwqd>.
9. Файяд У.М. Анализ и прогнозирование рисков в страховой сфере с использованием информационных технологий / У. М. Файяд // Экономика и инновации. 2021. – № 6 (22). – С. 90-94. URL: <https://eandinnovations.ru/article/2021/06/faiyad>.
10. Цифровая трансформация в сфере страхования / О.Н. Пакова, Ю.А. Коноплева, А.Е. Казакова, М.А. Ломаенко // Вестник Северо-Кавказского федерального университета. 2023. – № 3 (96). – С. 124-130. URL: <https://vestnikskfu.elpub.ru/jour/article/view/2490>.